

ONA TILI DARSLARDA TA'LIMIY O'YINLARNI QO'LLASH

Xushboqov Qobilbek Shokirovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu moqola o'qituvchi o'z darsni mazmunli tashkil etish borasida o'z darsida ta'limiy o'yinlardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini ijodiylik ruhida tashkil etishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Ta'limiy o'yinlar, o'yin harakati, o'yin qoidasi, o'yin mazmuni, "Meni tushun", "Soat", "Topog'on", fikirlash, dunyoqarash, topqirlik, zukkolik, mazmun, mahorat.

O'qituvchi darsni boshlar ekan, u o'z mahorati bilan o'quvchilarni darsga jalb qila olishi, darsni qiziqarli va ma'zmunli o'tkazishi, darslarda turli ta'limiy o'yinlardan foydalana olishi o'quvchilari e'tiborini tamomila darsga qarata olishi kerak hisoblandi. Shu o'rinda ta'limiy o'yinlar qanday o'yinlar undan qanday foydalanish va qo'lashni ko'rib chiqamiz.

Ta'limiy o'yinning asosiy mohiyati shundaki, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga o'yin shaklida aqliy vazifani bajarishi hal etish vazifasi topshiriladi. Har bir ta'limiy o'yinda ma'lum ta'limiy maqsadga qaratilgan vazifa qo'yiladi. Topshiriqlar shunday yo'sinda joylashtirilishi lozimki, o'quvchi tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilsin. Ijodiy topshiriqlar, ya'ni o'quvchi tafakkurini o'stiruvchi topshiriqlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi zarur. U bolalarda ijodkorlikni mantiqiy fikirlashni, ularing kuzatuvchanligi, diqqat-e'tibori, xotirasini rivojlantirish, nutqini o'stirish va aqliy faoliyatlarini kuchaytirish nazarda tutiladi. Ta'limiy o'yin mazmunini o'z ichiga, asosan, quyidagi to'rt omilni oladi.

1. O'yinning vazifasi.
2. O'yin harakati.
3. O'yin qoidasi.
4. O'yin yakuni.

Birinchi bo'lib biz tanlagan ta'limiy o'yinning asosiy vazifasi nima ekanligini uning mavzuga mashg'ulotga aloqadorligini hisobga olib bolaga vazifa berish. Vazifani bajarish jarayonida o'quvchi o'zining fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, oldingi olgan bilim va tushunchalarini esga tushirishga ularni eslashga va qo'lashga harakat qiladi. O'quvchilarga bu borada tushunishi qiyin bo'lgan vazifalar bermaslik kerak. Berilgan o'yin murakkab tushunishga qiyin bo'lsa, ularni qiynab qo'ysa, u vaqtda o'yin o'z qimmatini yo'qotadi.

Bolalar qiziqmagach, vazifa bajarilmaydi, o'qituvchi esa o'zi istagan natijaga erisha olmaydi. Shu bois ham o'qituvchi bolalarga shunday o'yin tanlashi kerakki, bu bolalarni qiziqтира oladigan o'yin turi bo'lishi kerak. Bolalarga vazifa berilgach, albatta, ular harakatga keladilar. Aynan shu narsa ularga zavq bog'ishlaydi. Bola uchun qiziqarli bo'lgan o'yinga bola, albatta, e'tibor beradi va topshiriqni bajarishga kirishadilar. O'quvchilar topshiriq turiga qarab bajaradilar.

Ular bu vaqtda topshiriqni bajarish vaqtida daftarlariga yozishi, og'zaki javob berish, indamasdan bajarish ham mumkin o'yin harakatini bolalarning yoshiga va bilim doirasiga qarab ham murakkablashtiriladi yoki bo'lmasam soddalashtiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sodda o'yin turlari tanlanadi. Ular bola uchun tushunarli bo'lishi kerak deb hisoblanadi. Har bir o'yinni o'ynashdan oldin bolalarga o'yin qoidasi, o'yin mazmuni, uning yakuni nimalardan iborat ekanligi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Bolalar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tanlagan o'yining mazmuni ham ular uchun tushunarli bo'lishi kerak. Bilamizki o'quvchilarni juda intiq qilib kuttiradigan narsa bu o'yinning natijasi hisoblanadi. O'yinda ma'lum kutilgan natijaga erishish, unda g'olib bo'lish, barcha o'yin qoidasiga rioya qilish, vazifani bajarish va belgilangan vaqtda topshiriqni yakunlashi orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayondan o'quvchilar o'yinda g'olib bo'lishni juda xohlaydi. Ular g'olib bo'lish uchun juda harakat qiladilar o'yinni yakunlash qismida o'qituvchi e'tibor beradigan narsa ham shunda o'yin yakunida har bir o'quvchini mehnatini uning harakatini inobatga olishi uni qadirlashi kerak. O'yin yakunida o'quvchini maqtab qo'yishi ham kerak hisoblanadi. Shunda o'quvchi juda xursand bo'ladi. Shuningdek keyingi darsda bundanda faol bo'lishga intiladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu bo'yicha muayyan shakldagi ta'limiy o'yinni tashkil qilish mumkin. "Xatosini toping", "Davom ettiring", "Kim chaqqon", "Zinama-zina", "To'rtinchisi ortiqcha", "Bilim daraxti", "Zanjir". "O'zim tekshiraman", "Topog'on", "Meni tushun", "Sirli sandiq", "Soat", "Kim topadi", "Kim birinchi", kabi ta'limiy o'ynlardan foydalanish samaraliy foyda berishi mumkin. Shuningdek o'qituvchi tomonidan o'yin tanlanganda mavsumga mos keladigan o'yin turini tanlash mumkin hisoblanadi.

Masalan qishda "Qorbo'ron" o'yinidan foydalansa bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darsni ta'limiy o'yinlar orqali tashkil qilish o'quvchilar uchun darsni juda mazmunli va maroqliy bo'lishni ta'minlaydi.

Masalan boshlang'ich sinf ona tili darslarda bolalar og'zaki va yozma nutqini o'stirishi, fonetik-grafik va grammatik tushunchalar, fikrlarini ifodali va mazmunli bayon etishga o'rgatib boriladi. Bunda o'quvchilarga mavzuni tushuntirish jarayonida,

uni mustahkamlash vaqtida uyga vazifani so‘rashda turli o‘yinlardan foydalansa bo‘ladi. Masalan o‘quvchilarga so‘zni biron harf orqali uning shakili va mazmuni o‘zgarishini tushuntirmoqchi bo‘lsak bunda o‘quvchilar uchun tushunishi oson bo‘lgan o‘yinlardan biri so‘z o‘yinidan foydalansak bo‘ladi.

So‘z o‘yini - ta’limiy o‘yinidan foydalanish bunda o‘quvchilarga qaysi tovush yoki harf so‘zlarning ma’nosini o‘zgartiryapti? Savoli qo‘yiladi. Bunda o‘qituvchi navbat bilan so‘zlarni og‘zaki ayta boshlaydi: o‘quvchilar qo‘l ko‘tarib so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirayotgan tovushni aytishadi va ma’nosi o‘zgarayotgan so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzadilar.

Til, tin, tir, tiz, tim, tish, to‘l, to‘r, to‘n, to‘p, to‘y, to‘k, to‘s, tom, ton, tol, tosh, tob, tog‘, tor, toj, toy, tok, top, tot, tut kabi so‘zlardan foydalanish mumkin. Bu so‘zlarda so‘zning ma’nosi va shakili bir harf bilan o‘zgarayabdi ular orqali gap tuzgan bola buni tez yodida saqlashi mumkin bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ayniqsa o‘yin orqali tushuntirilgan narsani tez yodida saqlaydi. Chunki ular o‘yin qaroqlikni juda yoqtiradi. Ta’limiy o‘yindan foydalanish darsni ham zerikarli bo‘lmasligini taminlaydi. Bolaning xayolot olami juda keng bo‘lib bu xayolni doim ham bir joyga yig‘sh qiyin, o‘quvchining xayolini darsga qaratish uchun ta’limiy o‘yinlardan foydalanish menimcha yaxshi foyda beradi. O‘qituvchining asosiy maqsadi - bolada o‘qishga qiziqish uyg‘otish.

Uni o‘zi o‘tayotgan darsga qiziqтира olish, darsni mazmunli va qiziqarli tashkil eta olish, bolaning bir daqiqa vaqti ham bekor ketmaslik eng asosiysi darsi jarayonida mavzuni to‘liq tushuntira olishi kerak. Tanlangan ta’limiy o‘yin bolaning mavzuni tushunishiga va uni o‘zlashtirishiga yaxshi yordam berishi kerak. O‘yin tanlashda o‘quvchi ruhiyati ham inobatga olinishi kerak.

O‘qituvchi o‘quvchilar uchun doim bir xil o‘yindan foydalanishi o‘quvchilarda zerikish va qiziqishning pasayishiga olib keladi. O‘quvchilar uchun ular uchun yangi bo‘lgan har-xil o‘yinlardan foydalanish kerak. Yana shuni ham o‘qituvchilar inobatga olishi kerakki. Darsning asosiy qismini o‘yin bilan o‘tkazmaslik, shuningdek o‘quvchilarni ko‘p o‘yinga ham o‘rgatib qo‘yish kerak emas, siz har dars ham o‘yin tashkil eta olmaysiz. Ta’limiy o‘yinlardan joyida foydalana olish ham o‘qituvchi uchun bir mahorat sanaladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA’NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA’LIMOTLARI . Journal of Universal Science Research, 1(5), 340–351. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/just/article/view/665>

2. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Saporova Shalola Sheraliyevna. (2023). ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARIDAGI MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI. Journal of Universal

Science Research, 1(5), 352–362. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/666>

3. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Pardayeva Sevara Abdunosir qizi. (2023). 1-4-SINF O`QUVCHILARIDA MA`NAVIY TARBIYA INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 363–373. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/667>

4. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Qobilov Jamshid Baxtiyor O`g`li. (2023). ZAMONAVIY O`QITUVCHIGA QO`YILADIGAN TALABLAR. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 1256–1263. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/926>

5. Jumaevich, K. K., & Abdullajonovna, A. G. (2021). Technology of Cooperation in the Formation of Spiritual and Moral Education of Young People in Society and Its Qualimetry. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7062-7068.

6. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). FORMATION OF EDUCATIONAL CONCEPTS RELATED TO ENTREPRENEURSHIP AND SAVING IN THE LABOR PROCESS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 152-156.

7. Jumaevich, K. K., Ergashovich, P. A., & Ismailovich, A. A. (2021). Development of Young Generation In The Spirit of National Ideas in The Process of Spiritual and Moral Education. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2173-2188.

8. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Family Cooperation Technology in the Formation of the Concepts of Entrepreneurship and Savings in Primary School Students. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7069-7076.

9. Д. М. Бобокулова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕЖАМКОРЛИК ВА ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2 (NUU Conference 1), 204-207.

10. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Problems of entrepreneurship, economy and economic education in the pedagogical heritage of eastern Thinkers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 565-572.

11. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, & Shuhratova Dilfuza. (2023). NUTQ MADANIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 164–167. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/347>

12. qizi Xushbaxtova, D. J. (2022). SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(4), 48-52.

13. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O`TISHDAN TARXIY SABOQ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(5), 306-310.

14. Qobilbek Shokirovich Xushboqov (2022). O`ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (5), 385-391.

15. Djoraevich, E. B., Shokirovich, K. K., Shodieva, K. K., & Gayratovna, Y. G. A Commentary on a Poem. *International Journal on Integrated Education*, 4(3), 122-125.

16. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O`TISHDAN TARXIY SABOQ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(5), 306-310.

17. Xushboqov, Q. S. (2022). O`ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 385-391.

18. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarda ta'limiy o'yining metodik xususiyatlari". O'quv uslubiy qo'llanma. D.Жамолиддинова, О. Тўхтасинова, З. Абдуллаева 2014.

19. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. G'oyibnazar Ernazarov Toshkent – "ILM ZIYO" 2013.

